

**HOZIRGI DAVR TARAQQIYOTIDA BOLALAR NUTQINI  
RIVOJLANTIRISHNING YANGI PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARI**

*Azimova Nodira Xikmatovna  
BuxDU Pedagogik ta’lim fakulteti tyutori*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqiy ahvoli, ya’ni nutqiy shakllanishi, rivojlanishlari, sof va ravon so’zlashlari, nutqiy defektlarning bo’lmasligi uchun mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlanirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda faol qo’llash masalalari bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** faoliyat, nutq, tafakkur, lug’at ishi, kompetensiya, innovatsion ta’lim, badiiy asar, rivojlanish.

**Annotation**

In this article, the speech condition of children of preschool educational organizations, that is, speech formation, development, clear and fluent speaking, the work being carried out in our country for the absence of speech defects, and the development and active use of new technologies for the development of speech of preschool children in the process issues are stated.

**Key words:** activity, speech, thinking, vocabulary work, competence, innovative education, artistic work, development.

Ma’lumki, vatan beshikdan boshlangani kabi, ta’lim-tarbiya ham beshikdanoq, hattoki, bola tug’ilmasidanoq berila boshlanishi kelajakdagagi ijobiy natijalarga sabab bo’ladi. Mamlakatimiz yoshlariga erta ta’lim-tarbiya berishning hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari o’z zimmasiga mas’uliyatini olgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bilimlarni berish shakli faoliyatdir. Faoliyatlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonematik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiyligi rivojlanish ta’minlanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko’nikma va faoliyatning turli ko’rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi. Ta’lim jarayoni bola shaxsiga yo’naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta’lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga

oshirilishi lozim. Yuqoridagilar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tatbiq etishda bola va pedagog shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta'lim jarayoni yaxlit subyektining rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi. Albatta, bunday chora-tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo, bolalarni har tomonlama intellectual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda ularni mакtabga sifatli tayyorlashdir. Shu bois bolalarni mакtabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shularni inobatga olgan holda bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lган mакtabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarning nutqiy ahvoli, ya'ni nutqiy shakllanishi, rivojlanishlari, sof va ravon so'zlashlari, nutqiy defektlarning bo'lmasligi kabi bir qator bajarilishi lozim bo'lган vazifalar turibdi. Biz bilamizki, tafakkur bevosita va bilvosita nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Til va tafakkur munosabati, ya'niki, qonuniyati aynan boladagi ilk nutqiy imkoniyatlarning paydo bo'lishidan boshlab o'zini namoyon etadi. Bola nutqi qanchalar boy, ravon, uzuksiz va o'rinni bo'lsa, bola tafakkuri buning in'ikosidir. Shunday ekan, biz nutq o'stirish ishlarini kichik guruh tarbiyalanuvchilaridan boshlashimiz darkor. Bugungi kunda nutqdagi kamchiliklar uchun maxsus mutaxassislar ish olib boradi, ammo lug'atni o'stirish, boyitish muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus mutaxassislar mavjud emas. MTT tarbiyachilarining oldidagi lug'at ishini olib borish va bola nutqidagi lug'at boyligini o'stirish muammolari kunning dolzarb masalasidir.

Mакtabgacha yoshdagи bolalar nutqini rivojlantirish "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilangan bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuvning muhim qismi sanaladi. 6-7 yoshli bolaning umumiyligi muhim kompetentsiyalari sifatida birinchi navbatda, kommunikativ kompetentsiya, ya'ni muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasini shakllantirish belgilangan. Demak, tarbiyalanuvchilarining o'yin, bilish va ijtimoiy kompetentsiyasi qatorida muloqot kompetentsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Shunday ekan, MTTda har bir ta'limiy faoliyat mazmunida bolaning nutqini o'stirish va muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yangi bilimlarni o'yinlar va didaktik vositalar asosida o'zlashtirganida samaradorlik yuqori bo'ladi. Ya'ni badiiy adabiyotni oddiy o'qib berishdan ko'ra innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta'minlaydi, tezlashtiradi va shu bilan ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun mакtabgacha yoshdagи bolalar nutqini rivojlantirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda faol qo'llash talab etiladi. Mакtabgacha yoshdagи bolalar nutqini shakllantirish muhim va qiyin vazifadir. Ushbu muammoni muvaffaqiyatlari hal qilish ham bolalarni yaqinlashib kelayotgan mакtabga tayyorlash uchun, ham boshqalar bilan qulay muloqot qilish uchun zarurdir. Bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha yurtimiz va MDH davlatlari pedagoglari qator izlanishlar olib borishganki, xususan, R.Inog'omova, L.Mo'minova, V.Gerbova, M.Konin, G.Lyamina,

O.Ushakovalarning pedagogik xazinasidan foydalanib MTTda nutq o'stirish ishlarini mazmunli tashkil etish mumkin.

Dialogik, hissiy jihatdan boy nutqi shakllanishi uchun qulay muhitda bo'ladi. Badiiy asarlar vositasida bolalarning nutqi va tafakkuri rivojlanar ekan, bir paytning o'zida bog'lanishli dialogga kirishadi, fikrlarini bayon etishga kirishadi. Bu bolaga zavq va quvonch bag'ishlaydi, bu tuyg'ular nutqni faol idrok etishni rag'batlantiradigan va mustaqil nutq faoliyatini yaratadigan eng kuchli vositadir. Buni amaliyotda kuzatganimizda o'yinlar va samarali ta'lim texnologiyalari asosida nutq o'stirish mashg'ulotlari o'tkazilganida bolalarning faolligi, fikrlarini dadil asosda bayon qilgani, jarayonda zerikish bilmaganligi, lug'atida yangi so'zlarni qo'llaganligi, qiziqishlari tufayli yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'onganligi ma'lum bo'ldi. Bu esa MTTda bolalarni mакtab ta'limiga tayyorlashda umumiyl muhim kompetentsiyalarini shakllantirishning asosiy va zarur talabidir. Mana shularni inobatga olgan olgan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o'stirish ta'limiy faoliyat jarayoni va nutq o'stirish faollik markazidagi jarayonlar zamonaviy texnologiyalarini qo'llagan holda olib borilishi zarur. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti ishiga innovatsiyalarini kiritish maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning eng muhim shartidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Q. Shodiyeva “Nutq o'stirish uslubiyoti” Toshkent-2009
2. “O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” Toshkent. O'zRMTV 2018 yil
3. “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi. Toshkent. O'zRMTV 2018 yil
4. ”Maktabgacha ta'lim metodikasi” jurnallari
5. Internet manbalari.